

# 2,59 mln tonna mineral o'g'it qishloq xo'jaligi tarmog'iga yetkazib berildi

// 13.05.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2-59-mln-tonna-mineral-o-g-it-qishloq-xo-jaligi-tarmog-iga-y>

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi qariyb 200 ta mamlakatdan atigi **15 tasida azotli, fosforli va kaliyli mineral o'g'itlarning** barcha turlari ishlab chiqariladi.

**O'zbekiston ana shunday davlatlar qatoriga** kiradi. Markaziy Osiyoda esa ushbu **uch turdagi** mineral o'g'itlarni to'liq ishlab chiqarayotgan **yagona** mamlakat hisoblanadi.

2025 yil yakuniga ko'ra, mamlakatda **3,56 mln tonna mineral o'g'it ishlab chiqarildi**. Uning **2,59 mln tonnasi qishloq xo'jaligi tarmog'iga yetkazib berildi**.

Fermerlar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida mineral o'g'itlar birja savdolari orqali **10 foizgacha arzon narxlarda taklif etilmoqda**. Respublika bo'ylab tashkil etilgan zamonaviy omborlar tizimi esa mahsulotlarni tez va samarali yetkazib berish imkonini bermiqda. Bugun ortish va yuklash jarayonlari raqamlashtirilgan bo'lib, barcha mahsulotlar **ISO 9001** standarti talablari asosida ishlab chiqarilmoqda.

2026 yilda esa **3,63 mln tonna** mineral o'g'it ishlab chiqarish rejalashtirilgan.